



**KLASTERLARDA SABZAVOT YETISHTIRISH, TASHISH, QAYTA
ISHLASH, SOTISH JARAYONLARIDA MENEJMENTI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10372314>

Ulmasov Amirxon Rasul o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti, Iqtisodiyot fakulteti 401- guruh talabasi
ulmasovamirkhan@gmail.com*

Salamov Ibrohim

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti, Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti
ibrohim.salomov.1951@gmail.com*

ANNOTATSIYA

Maqolada qishloq xo'jaligi tarmoqlarida klasterli yondoshuvlarning afzalliklari o'rganilgan. Klasterlarni tuzish va ularni rivojlantirishga oid xorijiy tajribalar tahlil etilgan. Klasterda tokzorlar tarkibi, uzum ishlab chiqarish va uni qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirishda optimallashtirish usullarini qo'llash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar

raqobatbardoshlik, ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, bozor, klaster, agrar soha, qishloq xo'jaligi, mahsulotlar, raqobat, mintaqa.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются преимущества кластерных подходов в сельском хозяйстве. Проанализирован зарубежный опыт создания и развития кластеров. Рассмотрены вопросы применения методов оптимизации при совершенствовании структуры виноградных насаждений, производстве винограда и его переработки.

Ключевые слова

конкурентоспособность, производители, потребители, рынок, кластер, аграрный сектор, сельское хозяйство, продукция, конкуренция, область.

ABSTRACT

The article discusses the benefits of cluster approaches in agriculture. Analyzed foreign experience in the creation and development of clusters. The issues of application of optimization methods for improving the structure of grape plantation, grape production and processing.

Keywords

competitiveness, producers, consumers, market, cluster, agricultural sector, agriculture, products, competition, region.

Mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani singari, meva-sabzavotchilikda ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Meva-sabzavot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ular faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda.

Meva-sabzavotchilik mamlakatimiz qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida muhim o'rinni egallab bormoqda. Respublikamiz bo'yicha sabzavotlar ekin maydoni 189,7 ming gektar, meva va rezavorlar maydoni 271,6 (shundan hosilli tokzorlar 221) ming gektarni, tokzorlar maydoni 114,5 (shundan hosilli tokzorlar 103,6) ming gektarni tashkil etadi. Respublikamiz tokzorlarini 69,7 ming gektari yoki 61 foizi fermer xo'jaliklari, 39,1 ming gektari yoki 34 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Barcha toifadagi xo'jaliklar bo'yicha tokzorlar hosildorligi 2014-2017-yillarda gektaridan o'rtacha 138,2 sentnerni, fermer xo'jaliklarida 110,3 sentnerni tashkil etgan. Respublikamizda yetishtirilgan uzumni yalpi hosilning 46-53 foizi fermer xo'jaliklari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizni meva-sabzavot mahsulotlarini xorijga eksport qilish salohiyati oshib bormoqda, xususan, mamlakatimizda yetishtirilgan uzum va uni quritilgan mahsulotlariga bo'lgan talablarni oshib borishi kuzatilmoqda.

Mamlakatimizda uzumni qayta ishlab olinadigan vino va boshqa mahsulotlarni xorijga eksport qilish uchun katta potensial imkoniyatlarga ega. Lekin, bu imkoniyatlardan foydalanish talab darajasida emas. Yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish ishlari sezilarli darajada sekinlashdi, natijada Respublikamizda ishlab chiqarilgan, o'z davrida xaridorgir, sifatli va raqobatli bo'lgan vino - sharbat mahsulotlari MDHda, ayniqsa Rossiya bozorlarida o'z o'rnini yo'qotdi. Shu boisdan, uzum ishlab chiqarish va uni qayta ishlash korxonalariga zamon talablariga mos faoliyatni yo'lga qo'yish, investitsiyalar jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, eksport hajmini oshirish va jug'rofiyasini kengaytirish kabi vazifalar yuklanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-fevraldagi "Vinochilik sohasini va alkogolli mahsulotlarni realizatsiya qilishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida "uzumning texnik navlari maydonlarining keskin qisqarib ketishi, ularni yetishtirish bo'yicha ilg'or usullarning sust joriy etilishi, uzumzorlar hosildorligining pastligi, shuningdek, fermer xo'jaliklarining yetarlicha manfaatdor bo'lmasligi vinochilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari pasayib ketishi va qayta ishlash quvvatlaridan samarasiz foydalanishning tizimli sababiga aylandi" deb, qayd etilgani bejiz emas. Bu qaror bilan Respublikamizda uzum plantatsiyalarini ko'paytirish va vinochilikni



rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilandi. Uzunni qayta ishlash korxonalari ishlab chiqarishida mahsulotlar turlari miqdorining mutanosibligiga e'tibor berilmaganligi sababli, so'nggi 10 yilda ishlab chiqarilayotgan uzum vinosi boshqa alkogolli ichimliklarga nisbatan 2,5-3 barobar kamayib ketdi. Birlamchi vino ishlab chiqarish korxonalari 200 ming tonna uzunni qayta ishlash quvvatiga ega, xomashyo kamligi sababli, 14 million dekalitr vinomaterial tayyorlash quvvatini atigi 15 foizidan foydalanilmoqda. Vinomaterial tayyorlovchi korxonalarining faqat 25 foizi modernizatsiya qilinib, qolganlarida eskirgan uskunalari ishlatilishi sababli, qariyb 4 million dekalitr tayyor qadoqlangan vino mahsuloti ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan 25 ta korxonalar 57 foiz quvvat bilan ishlamoqda. Buning asosiy sababi, vinobop tokzorlar maydoni va hosildorligi kamayib ketishi bilan izohlanadi.

Respublikamizda mavjud tokzorlarning 10 ming gektar maydoni vinobop navlarini tashkil etib, uning 4,3 gektari "O'zsharobsanoat" AJ korxonalariga tegishli. Bu maydonlarda ishlab chiqariladigan uzum miqdori bilan qayta ishlash korxonalarini ishlab chiqarish ehtiyojlarini qoplab bo'lmasligi sababli "O'zsharobsanoat" korxonalarida 2021-yilgacha sifatli vinobop uzum navlaridan iborat tokzorlar maydonini 10 ming gektarga yetkazish rejalashtirilgan.

Iqtisodiyotni klasterlashtirish dunyoda global tendensiyaga aylandi, bu tendensiyalar ayniqsa rivojlangan (AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Fransiya, Finlyandiya va boshq.), rivojlanayotgan (Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Meksika, va boshq.) va o'tish iqtisodiyotidagi (Vengriya, Sloveniya, Qozog'iston, Ukraina va boshqalar) mamlakatlarning iqtisodiy o'sishidan ko'rishimiz mumkin. Masalan, Fransiyada 200 ta atrofida hududiy klasterlar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu klasterlardan tanlov asosida 60 tasi ajratilib, ular davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Hindistonda esa 2000 ta atrofida klasterlar faoliyat ko'rsatib, ularning 388 tasi sanoat klasterlari va 1657 ta klasterlar esa uncha katta bo'lmagan korxonalarni birlashtiradi. Klasterlarning Hindiston eksportidagi hissasi 60 foizni tashkil etadi va shu bilan birga ayrim klasterlar o'z sohalarida monopolist hisoblanadi. Shuningdek bu mamlakatda katta klasterlar soni 80 tani, ularning tarkibiga kiradigan korxonalar soni 25 mingtani tashkil etgan holda, ulardan 7 mingtasi eksportyor korxonalar hisoblanadi. Keyingi o'n yillikda amalga oshirilgan klasterli tashabbuslar, rivojlangan mamlakatlarning (AQSH, G'arbiy Yevropa, Yaponiya) raqobatbardoshligini ko'rsatmoqda. Tadqiqotlarda klaster tizushning asosiy motivi sifatida quyidagi argumentlar keltiriladi: yangi texnologiyalarni joriy qilishning samaradorligi; mintaqada innovatsion faollikni oshishi; mintaqada iqtisodiyotiga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilinishi; malakali personallarni tayyorlash; yangi ishchi o'rinlarini yaratish; mintaqaviy ishlab chiqaruvchilarni boshqa mintaqalarga va eksport bozorlariga chiqishi.

Iqtisodiy fanlarda “klaster” atamasi bilan birga “klasterlashtirish” iborasi ham qo‘llaniladi. Klasterlashtirish (klasterli tahlil) – deganda,

Klasterlashtirish yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotini 60% foizini qamrab olgan, va unga dunyo iqtisodiy tizimining yangi rivojlanish vektori sifatida qaralmoqda.

Globalashuv, global iqtisodiy inqirozlar dunyo iqtisodiyotini o‘zaro bog‘langanligini ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitlarda, dunyo bozorlarini egallash uchun, raqobatlar tobora keskinlashib bormoqda.

Klasterlar - innovatsion texnologiyalar va bir-biriga yaqin texnologik aloqalarga asoslanadi. Klasterlarni tashkiliy shaklini mezonlari sifatida quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- birinchidan, tizimlilik, munosabatlarning mavjudligi va o‘zaro aloqalarni kuchliligi (zaif, o‘rta, kuchli va juda kuchli);
- ikkinchidan, innovatsion texnologiyalarni qo‘llanilishi, foydalanish va yaqin texnologik aloqalarning bo‘lishi;
- uchinchidan, klasterlar o‘z-o‘zini boshqaradigan va asosan o‘z-o‘zini tashkil qiladigan iqtisodiy shakldir. Shu bilan birga, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini-o‘zi tashkil etish muayyan iqtisodiy manfaatlarga asoslanadi.

Respublikasi Prezidentining “Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to‘qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq tashkil etildi. Bu qaror bilan “Mirza obod universal trade cluster” xususiy korxonasining “TRONTEX LP” (Buyuk Britaniya) va “GRATUM TRADING LP” (Buyuk Britaniya) xorijiy kompaniyalari ishtirokida mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “Bek cluster” qo‘shma korxonasini barpo etishni nazarda tutuvchi, qiymati \$165 mln. tajriba loyihasi tasdiqlandi.

“Bek cluster” MCHJga Sirdaryo viloyatining Mirzaobod, Xovos, Sayxunobod tumanlari va Guliston shahri hududlaridagi korxonalarni birlashtirgan, unga 18 ming gektar yer ajratilgan.

Samarqand viloyati bo‘yicha 2014-2017-yillarda tokzorlar maydoni, o‘rtacha hosildorligi va uzum yalpi hosili bo‘yicha ko‘rsatkichlari, ularni o‘zgarish dinamikasi, viloyat fermer xo‘jaliklari bo‘yicha tokzorlar umumiy maydonida sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmagan. Fermer xo‘jaliklari bo‘yicha tokzorlarni o‘rtacha hosildorligi yildan-yilga oshib borishi kuzatilmoqda. Masalan, viloyat bo‘yicha fermer xo‘jaliklari tokzorlar hosildorligi 2014-yilda gektaridan o‘rtacha 112,5 sentnerni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017-yilga kelib 30,7 sentnerga yoki 27,3 foizga o‘sib 143,2 sentnerni tashkil qilgan.

Samarqand viloyati tokzorlar maydoni uzumning xo‘raki, xo‘raki-vinobop, kishmishbop, vinobop turlari va navlaridan tashkil topgan. 2017-yilda xorijga 213,9 ming tonna miqdorida qiymati \$159,5 mln. dollarlik uzum eksport qilingan. Uning

77,9 ming tonnasi \$61,6 mln. dollari quritilgan uzum (mayiz) mahsulotlarini tashkil etgan. Viloyatning Urgut, Tayloq, Bulung'ur va Jomboy tumanlari meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan. Viloyatda yangi uzilgan, quritilgan va qayta ishlangan meva- sabzavot mahsulotlarini eksport qilishni oshirish imkoniyatlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Biz hozirgi vaqtda 1,5-2 milliard dollar miqdorida meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilmoqdamiz. Lekin ushbu sohada yiliga 10-15 milliard dollar mahsulot eksport qilish imkoniyati mavjud"-deb bejizga qayd etilgan emas (22.12.2017). O'zbekistonda tarmoqlarni klasterlashtirish jahon bozoriga sifatli va raqobatli mahsulotlar bilan chiqishni ta'minlaydi.

Hozirgi davrda, O'zbekiston ham qishloq xo'jaligini iqtisodiy rivojlantirishda klasterli yondoshuvga o'tmoqda. Dastlabki "Bek cluster" qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va bunda davlatning rolini qisqartirish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish, paxta va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning samarali usullarini joriy etish, ularni chuqur qayta ishlashni tashkil qilish, shuningdek, agrar sektorda mehnat unumdorligini va unga haq to'lashni oshirish maqsadida 2017-yil 15-sentyabrdagi PQ-3279- sonli O'zbekiston.

XULOSALAR

1. Zamonaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda klasterlarning O'zbekiston mintaqaviy hududlarida yuzaga kelishi va rivojlanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning optimal va innovatsion shakli hisoblanadi. Bu yerda, ichki va tashqi bozorni raqobatli, sifatli va xaridorgir bo'lgan ho'l va qayta ishlangan mahsulotlar bilan ta'minlash, bundan tashqari ijtimoiy va ekologik samaralar - malakali mehnat o'rinlari sonini ko'paytirish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, mehnatga layoqatlilik davrining o'sishini ta'minlash, ishsizlar sonini kamaytirish, tabiiy resurslarni asrash kabi jaryonlarni hisobga olish zarur bo'ladi.

2. Klasterlashtirishning asosiy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) Iqtisodiy o'sish "nuqta"li tasnifga ega bo'ladi, ya'ni tez rivojlanayotgan korxonalar, tarmoqlar, hududlar bilan bilan yonma-yon zarar ko'rib ishlaydigan va depressiv (tarqoq)lari ham faoliyat ko'rsatadi. Klasterlarning "o'sish nuqtalari"ni rivojlantirilishi - yangi klasterlarni rivojlanishini iqtisodiy potensialini yaratadi;

b) Innovatsiyalar, ularni qo'llash va tarqatish;

d) Ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli kamaytirish imkoniyatlarini beradigan mahalliy resurslaridan foydalanish;

e) Ishlab chiqarish hajmlarini oshirib borish, ishlab chiqarish ko'lamlarida iqtisodiy effektlarga erishish:

- f) Barcha klaster ishtirokchilarini o‘zaromanfaatli bo‘lishi;
- g) Investitsiyalarni jalb etish;
- h) Samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshib borishi.

3. Meva-sabzavot klaster tarkibiga kiradigan qishloq xo‘jaligi korxonalarini raqobatli ustunliklari shakllantiriladi, eng muhimi, moslashuvchanlik va bozordagi barcha o‘zgarishlarga tezda javob berish imkoniyatlari oshib boradi.

TAKLIFLAR

1. Respublikamizda meva-sabzavot klasterlari mahsulot ishlab chiqarishdan to sotishgacha bo‘lgan jarayonni mustaqil ravishda amalga oshiruvchi yagona va o‘zaro bog‘liq guruhlar doirasida, kafolatlangan shartnomalar asosida “urug‘-ko‘chat- mahsulot yetishtirish - tayyorlash - saqlash - qayta ishlash - transportirovka qilish - bozorga yetkazish” tamoyili bo‘yicha shakllantiriladi [2].

Bu jarayonda klaster ishtirokchilarining shaxsiy va jalb qilingan moliyaviy mablag‘lari hisobiga qo‘shimcha qiymatlar zanjiri bo‘yicha klaster usulida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish tashkil etiladi.

2. Qishloq xo‘jalik klasterlarini “ishlab chiqarish”-“qayta ishlash”-“sotish” jarayonlarining optimal ko‘rsatkichlarini aniqlash jarayonlarida iqtisodiy - matematik modellar va usullardan foydalanish yuqori samara beradi. Real ishlab chiqarish shart-sharoitlariga adekvat (mutonosib) bo‘ladigan iqtisodiy- matematik modellar, agrar sohaning qayta ishlab chiqarish jarayonlarining stoxastik bo‘lgan tabiatini, shuningdek tabiat, iqtisodiy va ijtimoiy shart- sharoitlarni o‘zaruvchan bo‘lishini hisobga olish lozim bo‘ladi.

Bizningcha, meva-sabzavot klasterining ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish uchun chiziqli optimallashtirish usullarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. “Meva-sabzavot” klasteri zanjiridagi uzumchilik tarmog‘ini “mahsulot yetishtirish - tayyorlash - saqlash - qayta ishlash - sotish” bo‘g‘inida, tokzorlar maydonining tarkibi tayanch o‘rinni egallaydi. Bu jarayonni optimal ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun u ikkiga ajratiladi: birinchisi “tokzorlar maydoni” - “ishlab chiqarish”, ikkinchisi “tayyorlash - saqlash - qayta ishlash - sotish” jarayonlarini optimal ko‘rsatkichlarini aniqlovchi iqtisodiy-matematik modellashtirish masalasi bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2020-yil 26-martdagi “Iqtisodiyotni kambag‘allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5975-sonli farmoni



2. 2020-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Respublikasi "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi qarorlar
3. G.M.Shadiyeva "Kambag'allik tushunchasining mohiyati, respublikamizda qambag'allik darajasini pasaytirishning asosiy yo'nalishlari" maqola 2-bet.
4. Shodiyeva, G.M (2006). Uluchsheniye blagosostoyaniya domoxozyaystva: problemy i puti ix resheniya. Monografiya, T.: Fan .
5. G.M.Shadiyeva, Z.Sh.Isoqulov (tezis) "Xalqaro tajriba asosida aholini kambag'allikdan chiqarilishi yo'llari" Samarqand 2022 58-61 betlar.
6. Shodieva, G. M., & Pardaeva, O. M. Problems of family entrepreneurship developing and increasing employment and income of the population and reducing poverty. Gwalior Management Academy, 23(210), 14.
7. Pardaev, M. Q., & Mamayunusovna, P. O. (2020). The 7P model of self-employment. American Journal of Economics and Business Management, 3(2), 45-54.
8. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions, 712-721.
9. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. PEDAGOG, 6(4), 568-574.
10. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ И ИЗМЕРЕНИЯ БЕДНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. PEDAGOG, 6(11), 237-246.
11. Жавманов, Ж. А., & Муродкулов, Ж. Х. (2023). ФАКТОРЫ БЕДНОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. PEDAGOG, 6(11), 247-254.
12. Казакова, З. С., & Назарова, М. Ш. (2023). СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. Научный Фокус, 1(7), 681-686.
13. Васлидинов, Б. В., Саламов, И., & Нурманов, Ш. Х. (2023). МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИДА САБЗАВОТ ЕТИШТИРИШ ВА УЛАРНИ РЕНТАБЕЛЛИК ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШ. Научный Фокус, 1(7), 687-699.
14. Иштурдиев, Х. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В АГРОКЛАСТЕРЕ. Научный Фокус, 1(7), 700-708.



15. Pardayeva, O. M. (2023). O 'ZINI O 'ZI BAND QILISHNING ISH BILAN TA'MINLANISHDAGI O 'RNI. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 8-16.
16. Rabbimovna, R. U., & Farxodovna, E. D. (2023). MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI, ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI. *Научный Фокус*, 1(7), 709-714.
17. Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLASTERLAR SOTISH JARAYONLARIDA SEGMENTAR HISOBOTLARNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(7), 790-795.
18. Muxammadkulovna, Y. D., Rabbimovna, R. U., & Bakhtiyorovna, N. G. (2023). Organization of Teaching Economics at the University. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 18, 30-32.
19. Yorbekova, D., & Raximova, U. (2023). MODERN FOUNDATIONS OF TEACHING ECONOMICS IN UNIVERSITY. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(2 Part 4), 173-176.
20. Rabbimovna, R. U., & Farxodovna, E. D. (2023). MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI, ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI. *Научный Фокус*, 1(7), 709-714.
21. Ulugbek, T. E., & Abdimumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. *SEA-Practical Application of Science*, (5), 649-654.
22. Eshmuradov, U. (2014). The methodology of the primary account sales of agriculture products. In *Construcții identitare. Reverberații ale modelului cultural francez în context european și universal. (Vol. 2, pp. 113-118).*
23. Alikulov, A. I., & Abdushukurov, K. B. (2023). Improving the analysis of financial results in agroclusters. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(9), 310-316.
24. Аликулов, А. И. (2010). Харажатлар хисоби ва тахлилининг назарий ҳамда амалий масалалари. Монография." *Фан ва технология*», - Тошкент, 196.
25. Alikulov, A. I. (2010). Modern trends in development of cotton production and processing chain in Uzbekistan. *Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB*, 6(3), 75-76.